

“Express” krediti

T/r	Ko'rsatkichlar	Asosiy talablar
1	Mahsulot nomi	Express
2	Kredit oluvchi	Yangi jalb qilinayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar
3	Kredit maqsadi	- Aylanma mablag'larni to'ldirish (<i>shundan naqd pul ko'rinishida ham ajratilishi mumkin</i>) - Investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun (<i>naqd pulda ajratilmaydi</i>)
4	Kredit summasi	10 000 000 000,0 so'mgacha
5	Kredit valyutasi	Milliy valyutada
6	I. Aylanma mablag'larni to'ldirish (<i>shundan naqd pul ko'rinishida 5 000 000 000.0 so'mdan oshmagan miqdorda</i>)	
	Kredit muddati	36 oydan oshmagan muddatgacha
	Ajratiladigan kredit uchun asosiy qarzni qaytarishga beriladigan imtiyozli davr	6 oydan oshmagan muddatgacha
	Kreditlash turi	Ochiq kredit liniyasi orqali
7	II. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun (<i>yakka tartibdagi tadbirkorlar bundan mustasno</i>) (shu jumladan ko'chmas-mulk, maxsus texnika sotib olish uchun shartnoma summasining kamida 20 foizi miqdorida qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan pul ko'rinishida shakllantirilgan taqdirda qolgan 10 foizi boshqa aktivlar va/yoki xarajatlar hisobidan))	
	Kredit muddati	60 oygacha bo'lgan muddatgacha
	Ajratiladigan kredit uchun asosiy qarzni qaytarishga beriladigan imtiyozli davr	12 oydan oshmagan muddatgacha
	Kreditlash turi	Yopiq (<i>kredit liniyasi ochmasdan</i>)
8	Kredit foiz stavkasi	a Oxirgi 12 oyda tadbirkorlik faoliyatidan o'rtacha 1 oylik pul tushumi, o'rtacha 3 000 000 000 so'm va undan yuqori, yoki 500 000 AQSH dollari va undan yuqori eksport tushimiga ega bo'lgan, yoki so'ralayotgan kredit miqdori va muddatidan kam bo'lmagan miqdorda muddatli omonat taqdim etilgan mijozlarga Yillik 21%dan kam bo'lmagan miqdorda (<i>naqd pulda ajratiladigan kredit loyihalariga yillik 22% kam bo'lmagan miqdorda</i>)
		b Oxirgi 12 oyda tadbirkorlik faoliyatidan o'rtacha 1 oylik pul tushumi, o'rtacha 1 000 000 000 - 3 000 000 000 so'mgacha va/yoki 200 000 - 500 000 AQSH dollari miqdorida eksport tushimiga ega bo'lgan mijozlarga Yillik 22%dan kam bo'lmagan miqdorda (<i>naqd pulda ajratiladigan kredit loyihalariga yillik 23% kam bo'lmagan miqdorda</i>)
9	Ta'minotga bo'lgan talab, jumladan:	Qonunchilikda ta'qiqlanmagan ta'minot turlari ostida (<i>ko'chmas mulk, avtotransport vositasi, sug'urta polisi, 3-shaxs (yuridik) kafilligi (bunda kreditning garov mulki bilan taminlangan qismi kredit summasini 100 foizga qoplashi lozim)</i>)
10	Ko'chmas mulkka bo'lgan talablar	- garov ta'minoti noturar joy va/yoki turar joy bo'lishi lozim (<i>turar joyda hech kim ro'yxatda bo'lmagan taqdirda</i>); - boshqa garovdan ozod bo'lishi lozim.
11	Avtotransport garoviga bo'lgan talablar	- garovga qabul qilinayotgan avtotransport vositalarining ishlab chiqarilganligiga 5 yildan ko'p bo'lmasligi lozim (<i>Davlat texnik nazorat boshqarmasidan ro'yxatdan o'tadigan maxsus texnika vositalari garov ta'minoti sifatida garovga qabul qilinmaydi</i>)

		- boshqa garovdan ozod bo'lishi lozim.
12	Qo'shimcha ta'minot	Jismoniy shaxs kafilligi faqat qo'shimcha ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin <i>(bunda jamiyat ta'sischilari va jamiyat rahbari hamda boshqa ta'sir doirasiga ega bo'lgan shaxslar kafilligi ta'minotga qabul qilinishi tavsiya etiladi)</i>
Tadbirkorlik subyektiga bo'lgan talablar		
Tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan talab		Faoliyat yuritayotgan davri 12 oydan kam bo'lmasligi lozim
Hisob raqamiga bo'lgan talab		Kredit ajratilayotgan davrda asosiy depozit hisobvarag'i kredit ajratayotgan bank xizmatlari ofisida mavjud bo'lgan mijozlarga <i>(yakka tartibdagi tadbirkorlar bundan mustasno)</i>
Hisob raqam holatiga bo'lgan talab		2-sonli kortatekada qarzdorlik mavjud bo'lmasligi lozim
Hisob varag'i aylanmasiga bo'lgan talab		Hisobvarag'ida oxirgi 6 oy davomida tadbirkorlik faoliyatidan uzluksiz pul tushumlariga ega bo'lishi hamda kredit va unga hisoblangan foizlarni qoplashga yetarli bo'lishi shart
Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari		Nolikvidlik balans va so'ngi moliyaviy hisobotlari zarar bilan yakunlangan bo'lmasligi lozim <i>(Bunda oxirgi yillik va tezkor balans hisobga olinadi)</i>
Xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiyatlariga bo'lgan talab		- Amaldagi kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud bo'lmasligi lozim; - Muddati o'tgan debitor, kreditor qarzdorligi bo'lmasligi lozim.
Kredit tarixiga bo'lgan talab		Qarz oluvchida so'ndirilmagan muddati o'tgan qarzdorliklari mavjud bo'lmagan va oxirgi 6 oyda uzluksiz 20 kalendar kundan ortiq muddati o'tgan qarzdorliklarga yo'l qo'ymagan bo'lishi lozim

Mazkur kredit mahsuloti doirasida ajratiladigan umumiy kreditlar qoldig'i 10 000 000 000,0 so'mdan oshmasligi lozim.